



UO'K: 811.512.161:61

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TIBBIY TERMINOLOGIYA BO'YICHA TADQIQOTLAR:  
SIFAT VA MIQDOR TAHLILI****ИССЛЕДОВАНИЯ ПО МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОЙ  
ЛИНГВИСТИКЕ: КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ****RESEARCH ON MEDICAL TERMINOLOGY IN UZBEK LINGUISTICS: QUALITATIVE  
AND QUANTITATIVE ANALYSIS****Qosimova Feruza Xursanali qizi** Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasi doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasini o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyalar tadqiq qilingan. Shu kungacha jami o'n to'rtta monografik tadqiqot mavjudligi aniqlanib, ularning sifat va miqdor tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, ularning xronologik tartibi diagramma orqali ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lingan. Ushbu ilmiy ishlarda tibbiy terminlar tilshunoslikning o'nta sohasi bo'yicha o'rganilganligi aniqlanib, ular ichida soha birliklarining semantik xususiyatlarini aniqlash eng ustuvor yo'nalish hisoblanganligi ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, tibbiy terminlarning ma'no va mazmun jihati tadqiqotchilarning alohida e'tiboridagi masalalardan hisoblanadi. Ushbu ilmiy izlanish o'zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasining tadqiqi sohasi monografik ko'lamda 1967-yildan boshlanganligini hamda lingvokulturologiya, lingvopragmatika, lingvopoetika kabi turli tilshunoslik sohalarini qamrab olgan holda tadrjiiy shakllanganligini asosladi. Bundan tashqari, mazkur sohada erishilgan yutuq va kamchiliklar ko'rsatib berilishiga xizmat qildi.

**Аннотация**

В статье исследованы диссертации, посвященные изучению медицинской терминологии в узбекском языкознании. На сегодняшний день выявлено в общей сложности четырнадцать монографических исследований, проведен их качественный и количественный анализ. Их хронологический порядок также удалось проиллюстрировать с помощью диаграммы. В этих научных работах установлено, что медицинские термины изучаются в десяти областях лингвистики, в которых определение семантических характеристик отраслевых единиц является наиболее приоритетным направлением. Отсюда следует, что аспект значения и содержания медицинских терминов находится в центре особого внимания исследователей. Это научное исследование обосновало, что область изучения медицинской терминологии в узбекском языкознании началась в монографическом масштабе с 1967 года и формировалась поэтапно, охватывая различные области лингвистики, такие как лингвокультурология, лингвопрагматика, лингвопоэтика. Кроме того, были продемонстрированы достижения и недостатки в данной области.

**Abstract**

The article examines dissertations devoted to the study of medical terminology in Uzbek linguistics. To date, a total of fourteen monographic studies have been identified, and their qualitative and quantitative analysis has been carried out. Their chronological order was also illustrated using a diagram. In these scientific papers, it is established that medical terms are studied in ten areas of linguistics, in which the definition of semantic characteristics of industry units is the highest priority. It follows that the aspect of the meaning and content of medical terms is in the focus of special attention of researchers. This scientific study proved that the field of medical terminology in Uzbek linguistics began on a monographic scale in 1967 and was formed in stages, covering various fields of linguistics, such as linguoculturology, linguopragmatics, linguopoetics. In addition, achievements and shortcomings in this area were demonstrated.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot terminologiyasi, termin, tadqiqotlar, dissertatsiyalar, baynalmilallik, terminologik sistema, xronologiya, tadrjiiy rivojlanish.

**Ключевые слова:** медицинская терминология, термин, исследования, диссертации, интернационализация, терминологическая система, хронология, поэтапное развитие.

**Key words:** medical terminology, term, studies, dissertations, internationalization, terminological system, chronology, gradual development.

### KIRISH

Bugungi kunda o'zbek tibbiyot terminologiyasi jadal suratlar bilan taraqqiy topmoqda. Bunda albatta, ko'plab tadqiqotchi olimlarimizning xizmati katta. Ularning ilmiy ishlarida tibbiy terminlarning turli jihatlarini tahlil qilinganini va asoslanganini ko'rish mumkin. Jumladan, D.X.Bozorova, A.Xusanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedova, N.Gaybullaeva, F.Abdulxairova, F.Akbarxodjayeva, A.Saidnomanov, N.Rasulova, D.Xudoyqulova, B.Suyunov, M.Navruzova, B.Gafurov kabi tadqiqotchilarning dissertatsiyalari e'tiborga molik. Quyida ushbu ilmiy izlanishlar chuqur tadqiq etilib, mazkur sohaning nazariy manzarasi qanday ekanligi yaqqol ko'rsatib berilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, tibbiy terminlar tadqiqi bir necha olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular odatda shu kungacha olib borilgan tadqiqotlarni tavsiflashgan, ya'ni sifat jihatdan tahlil qilishgan. Bu orqali ular har bir ishning tilshunoslik uchun ahamiyatini asoslay olganlar. Ammo ularning miqdori hamda qamrab olingan tilshunoslik sohasining umumiy tahlili hech yoritib berilmagan. Shularni hisobga olib, maqolada monografik ishlar sifat va miqdor jihatdan o'rganilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot – D.X.Bozorovanning «Odam tanasi a'zolari nomlarining semantikasi va ular asosida yasalgan turkiy tillardagi so'zlar» [1] deb nomlangan dissertatsiyasidir. Ushbu ishda qadimgi turkiy tillardagi adabiyotlarda qayd qilingan odam tanasi a'zolari nomlarining, ya'ni somatizmlarning o'ziga xos leksik-semantik jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Yana bir tadqiqotchi olim A.Xusanov o'zining «O'zbek tilida kasallik va simptom nomlari» [2] mavzusidagi dissertatsiyasida tibbiyot terminologiyasida katta hajmni egallaydigan kasallik va ularning belgilarini ifodalovchi terminlarni obyekt sifatida olib tadqiq qilgan va quyidagi natijalarga erishgan:

- 14 xil usulda yasalgan klinik terminlar aniqlangan;
- kasallik va ularning belgilariga ishora qiluvchi leksemalarning aksariyati *-ma, -cha, -sh, -ish, -la, -lash, -lik, -simon* kabi qo'shimchalardan hosil bo'lganligi dalillagan;
- ushbu soha terminlarining asosiy tashqi boyish manbalari arab, fors, tojik va rus tillari ekanligi e'tirof etilgan.


Bundan tashqari, mazkur ishda mavzu doirasidagi terminlar orasida mavjud muammolar masalasiga ham alohida urg'u berilgan bo'lib, unda asosan sinonimiya, terminlar imlosidagi chalkashliklar xususidagi tadqiqotchining ilmiy farazlari va kuzatuvlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, lotincha «aliniomentalis» terminining o'zbek tilidagi muqobillari sifatida *jinnilik, esipastlik, devonalik, telbalik, savdoyilik, jinnisang'illik, esvoslik* kabi leksik birliklar qo'llanilishi ta'kidlangan; *ko'k yo'tal, ko'k dog', ko'k suv, qora qo'tir, oq yem* kabi terminlar goh qo'shib, goh alohida yozilishi qayd qilingan. Ularni tartibga solish bo'yicha tadqiqotchi o'z takliflarini bergan.

Tibbiyot terminologiyasi ko'p qirrali soha hisoblanadi. Shu sabab unda xilma-xil adabiyotlarni, ilmiy ishlarni uchratish mumkin. Xususan, farmasevtika sohasi ham tibbiyotning ma'lum qismini egallaydi. Mazkur soha terminlari A.Qosimovning «Zamonaviy o'zbek tilida farmasevtik terminologiya» [3] dissertatsiyasida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchi soha terminlarining morfologik jihatini o'rganib, ularning ichki tuzilishida *-ma, -lik, -(u)v+chi, -(i)sh, -ki* (uning shakllari: *-gi, -g'i, -qi*) - *gich* (uning shakllari: *-kich, -qich, -g'ich*) kabi morfemalar faol qo'llanilishini asoslagan. Shuningdek, A.Qosimov mazkur soha birliklarini o'rganib, fors-tojik (*kunjut, zirk, sirka*), arab (*dolchin, zaytun, sharbat*) va rus (*novokain, kraxmal, kislota*) tillari ularning tashqi boyish manbalari ekanligini qayd qilgan. Ishda soha terminologiyasidagi ayrim muammolar masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan. Xususan, olim: "Sinonimiya badiiy, publisistik, shuningdek, jonli so'zlashuv nutqini bezaydi, ammo ilmiy uslubda unga o'rin yo'q" [3, 127], – kabi fikrni berib, bir necha terminlarni misol sifatida keltirgan. Bundan tashqari, ishda ayrim terminlarning qisqa emasligi (*mushak tonusini kamaytirish uchun qo'llaniladigan moddalar*), imloviy kamchiliklar (*kuracha*) xususidagi tahlillar ham o'rin olgan.

Tibbiyotning yana bir "qirra"sini o'zida namoyon qilgan anatomiya sohasiga tilshunos Z.Mirahmedovanning «O'zbek tilining anatomik terminologiyasi» [4] deb nomlangan tadqiqotida e'tibor qaratilgan. Mazkur ish terminlarning semantikasi, morfologiyasi, etimologiyasi va

muammolarining tadqiqiga bag'ishlangan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha: "Yahlit bir terminologik sistemani tashkil etuvchi anatomik terminlar, o'z navbatida, bir qancha mavzu guruhlariga bo'linadi. Terminlarni mavzu guruhlariga bo'lib o'rganish muayyan terminologik sistemaning, bu o'rinda o'zbek anatomik terminologiyasining butun lug'aviy boyligini, uning shakllanish va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi" [4, 68]. Tadqiqotda o'n mingdan ortiq anatomik terminlar mavzuiy guruhlarga ajratilib, ularning semantik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, o'zbek tilining lisoniy vositalaridan tashqari arab, fors va rus tillari ham o'zbek anatomik terminologiyasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganligi e'tirof etilgan. Tadqiqotchi mazkur soha birliklarining derivatsion jihatlariga ham e'tibor qaratib, ular asosan semantik-sintaktik usulda yasalganligini aniqlagan. Z.Mirahmedova ham o'zidan avvalgi olimlar qatori soha terminologiyasining eng katta nuqsonlari sifatida sinonimiya, terminlar imlosidagi har xillik kabilarni alohida qayd etib o'z takliflarini bildirgan.

Ta'kidlash joizki, biz yuqorida keltirgan 1967-yildan 1994-yilgacha bajarilgan tadqiqotlarda tibbiyotning ma'lum tarmoqlari alohida obyekt sifatida o'rganilganligini kuzatish mumkin. Misol uchun, D.X.Bozorovning ishida – odam tanasi a'zolari nomlari, A.Xusanovnikida – kasallik va uning simptom nomlari, A.Qosimovnikida – dori nomlari, Z.Mirahmedovanikida – anatomik terminlar tadqiq qilingan. Tilshunoslik nuqtai-nazaridan qaraganda ularning barchasida terminlarning semantik, morfologik, etimologik jihatlar va muammolari ochib berilgan. Har bir tadqiqotchi o'z obyekti doirasida mazkur masalalarni tahlil qilishga va o'z fikrlarini berishga muvaffaq bo'lgan. Qayd etish joizki tibbiy terminlar tadqiqi borasida o'zbek tilshunosligida 1994-yildan boshlab ma'lum davr to'xtalish kuzatiladi. Himoya qilingan dissertatsiyalar yillarining xronologiyasiga nazar tashlab (*1-rasmga qarang*), bu tanaffus 25 yil davom etganligiga guvoh bo'lish mumkin.



1-rasm. O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar tadqiq qilingan dissertatsiyalar xronologiyasi

So'nggi paytlarda tibbiy terminlarni tadqiq qilishga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Bunga bir tomondan, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog'risida"gi farmonining qabul qilinishi, boshqa bir tomondan esa yurtimizda hukm surgan pandemiya sharoiti va tibbiyotdagi kashfiyotlar katta ehtimol bilan birlamchi omillardan bo'lgan deb o'ylaymiz. Zero, 1.1-rasmdan ham ko'p tilshunoslarning ushbu soha leksikasi tadqiqiga bo'lgan qiziqishi ayniqsa oxirgi ikki yilda ortganligi sezilib turibdi. Shuningdek, ushbu ilmiy izlanishlarda tibbiy terminlarni tadqiq qilishda tilshunoslarning yondashuvlari o'zgarganligi ko'zga tashlanadi. Qayd etish lozimki, ular tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan ahamiyatga molik.

Chunonchi, N.G'aybullayevaning "O'zbek tilida tibbiy evfemalar (tibbiy davr nashr materiallari asosida)" [5] mavzusidagi tadqiqot ishi soha terminlarining lingvokulturologik jihatini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Xususan, ishda tibbiy evfemizmlarning leksik-grammatik jihatlar, o'zbek xalqiga xos qo'llanilishi, ularning ayol va erkaklar muloqotida o'ziga xos tarzda voqelanishi o'rganilgan. Shuningdek, N.G'aybullayeva hammualifligidagi "O'zbek tilida tibbiy evfemizmlarning lingvistik xususiyatlari" deb nomlangan maqolada ham o'zbek tilidagi tibbiyotga oid gazeta va jurnallar materiallariga tayanilib, tibbiy evfemizmlar 12 ta mavzuiy guruhlarga tasniflangan:

## TILSHUNOSLIK

1. Insonning ayrim fiziologik yoki jismoniy jarayon-holatini anglatuvchi evfemik ifodalar.
2. O'lim bilan bog'liq evfemizmlar.
3. Kasallik bilan bog'liq evfemizmlar.
4. Davosiz yoki davosi uzoq kasallik nomlari bilan bog'liq evfemizmlar.
5. Jamiyat tarafidan uyat, qo'pol deb qabul qilingan kasalliklar va alohida holatlarga asoslangan nomlanishlar.
6. Jinslarga bog'liq evfemizmlar.
7. Jinslararo (erkak va ayol) munosabatlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar.
8. Jinsiy a'zolar nomi bilan bog'liq evfemizmlar.
9. Ayollarning uzrli holatlari (homiladorlik, hayz payti) bilan bog'liq evfemizmlar.
10. Inson tana a'zolarini ifodalovchi evfemik ifodalar.
11. Biomoddani anglatuvchi evfemik ifodalar.
12. Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar. [6, 205]

Olima soha leksik birliklarini mufassal tadqiq etib, nutq vaziyati, ijtimoiy sinf, rol, mavqe, jins va yosh kabi omillar tibbiy evfemalarning ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi degan xulosaga kelgan.

Tibbiy terminlarning milliy-madaniy xususiyatlari F.Abdulxairova tomonidan bajarilgan "O'zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi" [7] mavzusidagi dissertatsiyada ham chuqur o'rganilgan. Ishda tibbiy termin-metaforalarning o'zbek tilida paydo bo'lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va bu jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazgan buyuk mutafakkirlar Mahmud Qoshg'ariy va Abu Ali ibn Sino asarlarida foydalanilgan terminlarning xususiyatlari ochib berilgan. Qolaversa, tibbiy termin-metaforalarning kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlari, medisina terminlarini unifikatsiyalash va tartibga solishda tibbiy termin-metaforalarning emosional-baholovchi va tajribani yetkazib beruvchi vosita sifatidagi o'rni ochib berilgan [7, 9]. Mazkur ish ayniqsa 3500dan ziyod tibbiy metaforalarning yasaliş tamoyillarini, mavzuiy va tarkibiy-semantik belgilarining kompleks tahlilini o'zida mujassamlashtirganligi bilan e'tiborga molik. Tahlillar natijasida ishda metaforalarning aksariyati salbiy konnotatsiyalar orqali qabul qilinishi, tilda ijobiy bahoga ega yoki sog'ayish to'g'risidagi metaforalar deyarli uchramasligi hamda amaliy tibbiyotda ham metaforalar soni juda kamligi aniqlangan. Bunga tadqiqotchi bir tomondan jamiyat ongida chora-tadbirlar tibbiyotining amaliyoti shakllanmaganini sabab deb keltirsa; ikkinchi bir tomondan tibbiy metaforalarni tushunish va amalda qo'llash jamiyatda shakllangan tibbiy ong, tibbiy tushuncha, tibbiy ko'nikma va shu kabilarga borib taqalishini qayd etadi.

Shuningdek, muallifligimizdagi "O'zbek-ingliz tibbiy terminlari va ularning lingvokulturologik tadqiqi" [8] mavzusidagi PhD tadqiqot ishimiz ham aynan shu masalaga bag'ishlangan. Unda o'zbek tilidagi 5000ga yaqin tibbiy terminlar ingliz tilidagi leksik birliklarga semantik va lingvokulturologik jihatdan chog'ishtirilib, o'ziga xos va umumiy xususiyatlari yoritib berilgan. Chuqur tahlillar natijasida quyidagi xususiyatlar faqat o'zbek lingvomadaniyatiga xosligi aniqlangan:

mistik davolovchi shaxs nomlarini ifodalaydigan birliklar o'zlarining «davolovchi shaxs» semasini hozirgi kunga qadar ham saqlab qolgan;

«tabib» tushunchasi yuqori maqomga ega;

tabiiy ne'matlar, dorivor o'simliklar, tozalik sog'liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etishi o'zbek tilidagi frazeologik birliklarda ilgari suriladi;

«yomon ko'z» tushunchasi mavjud bo'lib, buning natijasida «homiladorlik» semali birliklar ning tilda verballashishi kuzatilmaydi;

rivojlanayotgan homila metaforik tarzda «mehmon» lingvokulturemasi orqali ifodalanadi [8, 142-143].

F.Akbarxodjayevaning "Tibbiyot sohasiga oid o'zlashma terminlarning lingvostatistik tadqiqi (lotin tilidan rus va o'zbek tillariga o'zlashgan terminlar misolida)" [9] mavzusidagi dissertatsiyasida o'zlashgan terminlarning derivatsion, struktur-semantik, transformatsion aspektlarda lingvostatistik jihatlari yoritib berilgan. Ma'lum lug'atlarga tayanib, o'zbek tiliga o'zlashgan terminlarning umumiy miqdori – 2304 (100%) ta ekanligi hamda ular asosan yunon va lotin tillariga mansubligi aniqlangan. Soha terminologik lug'atlarida lotin tilidan o'zlashgan

terminlarning nominativ funksiyasini tadqiq qilishda miqdoriy sifat tahlili metodidan foydalanilgan bo'lib, bu mazkur birliklarni muayyan guruhlariga tasniflash orqali ko'rsatib berilgan. Xususan, kasalliklar, patologik holatlar – 19.8%; kasallik simptomlari – 4.7%; kasallik sabablari (etiologiyasi) – 7%; anatomiya va fiziologiya – 27.2%; tibbiyotda o'lchov birliklari – 0.9%; tibbiyot instrumentlari, materiallari, jihozlari – 8.8%; tashxislash va davolash usullari – 10.9 %; dori vositalari – 10.5%; biologiya – 4.4%; sohalararo – 3.7% ni tashkil qilishi kuzatilgan.

A.Saidnomanovning "O'zbek tili tibbiyot terminologiyasi va uning leksikografik talqini" [10] mavzusidagi dissertatsiyasida soha terminlari o'z va o'zlashgan qatlamga bo'lib o'rganilgan. Ishda o'z qatlam terminlari sifatida sof o'zbekcha (turkiy) tibbiy terminlar va o'zga tillarga mansub asos yoki qo'shimchalar ishtirokida sintaktik usulda hosil qilingan o'zbekcha tibbiy terminlar; o'zlashgan qatlam birliklari sifatida esa arab, fors, tojik, rus tillaridan va rus tili orqali g'arb tillaridan o'zlashgan baynalmilal terminlar muayyan paradigmalarga bo'lib, tadqiq qilingan. Bundan tashqari, o'zbek tibbiyot terminlarini o'zida mujassamlashtirgan turli tip lug'atlari haqida mulohazalar yuritilgan. Chunonchi, olimning fikricha, "Ikki tilli tarjima lug'atlari ham, birinchidan, terminologiya rivojini, terminlar taraqqiyotini izchil aks ettirib borgan bo'lsa, ikkinchidan, tibbiy terminlarni keng ommaga tanishtirishga, tushuntirishga xizmat qilib kelgan" [10, 17]. Bunga asos sifatida K.K.Yudaxinning "Qisqacha o'zbek-rus lug'ati" (1927-y.), "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at" (1927-y.) "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1931-y.), "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1959-y.), "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (1983-1984, 2013-y.)larga kiritilgan tibbiy terminlar o'rganilgan.

N.A.Rasulovanning "Ingliz-o'zbek tillaridagi tibbiyot terminlarining o'quv lug'atini tuzish tamoyillari (anatomik terminlar asosida)" [11] mavzusidagi dissertatsiyasida tibbiy terminlar lug'atini tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan. Jumladan:

- Lug'atning maqsad va vazifasi, adresati aniqlanishi lozim;
- Lug'atga 3000 ga yaqin anatomik terminlar olinishi maqsadga muvofiq;
- Terminologik lug'atlarda so'zliklarni alfavit bo'yicha joylashtirish kerak;
- Lug'atning izohli tarjima lug'ati sifatida tuzilishidan kelib chiqqan holda terminlarni izohlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ishda ingliz tilidagi anatomik tibbiy terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishning quyidagi tamoyillari taklif etilgan: monoleksem ekvivalentlar orqali tarjima; polileksem ekvivalentlar orqali tarjima; transliterativ usul orqali tarjima; eponim terminlar tarjimasi kabi.

O'quv lug'atining strukturasi ham quyidagicha tuzish mumkinligi ko'rsatib berilgan:

- terminlarning semantik tabiati (terminologik polisemiya; terminoloagik sinonimiya; terminologik antonimiya; terminologik omonimiya; terminlarning grammatik tabiati; terminlarning variantlashuvi);

1. Bosh so'z - termin nomi;
2. Ingliz tilidagi izohi;
3. O'zbek tilidagi ekvivalenti. [11, 146-147]

Tibbiy terminlarning leksikografik jihati D.Xudoyqulovanning "Farmasevtik terminlarning leksikografik va funksional-semantik tadqiqi (ingliz, rus, o'zbek tillari misolida)" [12] mavzusidagi dissertatsiyada ham o'z aksini topgan. Garchi ushbu tadqiqot qiyosiy kesimda amalga oshirilgan bo'lsa ham (ya'ni o'zbek tilidan tashqari boshqa tillarga ham e'tibor qaratilgan), ammo u o'zbek tilshunosligini, shu jumladan o'zbek tili tibbiyot leksikografiasini muhim ma'lumotlar bilan boyitgan. Xususan, ishda farmatsevtik lug'atlarning terminologik mezonlari tahlil qilingan bo'lib, tadqiqot natijasida terminologik lug'atlarni yaratish amaliyotidan kelib chiqqan holda, farmatsevtik terminlar lug'atini tuzishning quyidagi prinsiplari taklif qilingan: ma'lum fan yo'nalishi bo'yicha asosiy farmatsevtik tushunchalarni qamrab oluvchi sohaviy lug'at bo'lishi zarur; so'z beruvchi manba til (source language) va so'z o'zlashtiruvchi (target language) tillardagi farmatsevtik terminologik birliklarni o'z ichiga olgan keng ommaga mo'ljallangan tarjima lug'ati bo'lishi talab etiladi; funksiyasiga ko'ra normativ (ma'lum miqdordagi terminlardan iborat) bo'lishi kerak; hajm jihatdan mavjud lug'atlarga nisbatan imkoniyati yuqori bo'lishi talab etiladi (o'rta kattalikdagi lug'at hisoblanadi); farmatsevtika sohasiga oid faol qo'llaniluvchi terminologik leksikani o'z ichiga olishi kerak [12, 16].

Soha terminlarining kompyuter texnologiyalari asosida tizimlashtirish masalasi B.T.Suyunovning "Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi" [13] deb nomlangan doktorlik

## TILSHUNOSLIK

dissertatsiyasida tadqiq etilgan. Unda o'zbek tili tibbiy terminlarining quyidagi semantik tarmoq tezaurus modeli ishlab chiqilgan:

1. Tibbiy terminning morfologik belgisi (tibbiy terminning sof lingvistik jihatlari qayd etiladi, ya'ni so'z shakli, tuzilishi, so'z turkumi belgilanadi).

2. Talaffuzi.

3. Semantik tarkibi: tibbiy terminning ma'no komponentlari, qaysi tushuncha uchun xizmat qilishi, ma'nolari aks ettiriladi va ularga tegishli misollar ham beriladi. Semantik tarkib quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi: a) tibbiy terminning asl ma'nosi: ushbu termindan, ayni paytda anglashiladigan real ma'nolar ko'zda tutiladi. b) ko'chma ma'nosi: mazkur tibbiy terminning ma'no ko'chimlari (agar mavjud bo'lsa) misollar orqali ko'rsatiladi.

4. Omonimi (omonimi mavjud bo'lsa, misollar orqali izohlanadi).

5. Sinonimi (sinonimi mavjud bo'lsa, keltiriladi).

6. Antonimi (antonimi mavjud bo'lsa, keltiriladi va izohlanadi).

7. Giperonimi (tibbiy termin mansub bo'lgan umumiy tur (nom) izohlanadi). 8. Giponimi (tibbiy terminning o'z ichidagi turlari (atributlari) keltiriladi).

9. Etimologiyasi (tibbiy terminning kelib chiqishi va semantik taraqqiyoti aks ettiriladi).

10. O'zakdoshlari (shu termin asosida yasalgan lug'aviy birliklar keltiriladi).

11. Frazologizmlar tarkibida qo'llanishi: agarda tibbiy termin frazeologik birliklar tarkibida ishlatilsa, misollar keltiriladi.

12. Birikmalar tarkibida qo'llanishi: tibbiy termin asosidagi birikmalar keltiriladi.

13. Boshqa tillardagi varianti: tibbiy terminning rus, ingliz va rivojlangan xorijiy tillardagi tarjimai beriladi [13, 21].

Mazkur model o'z qatlamga oid tibbiy terminlarning semantik xususiyatlarini yaxshi yoritib bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu ilmiy ish materiallari o'zbek tili tibbiy terminlari tezaurusi (Uzmedtezaurus) lingvistik ta'minotining yaratilishiga xizmat qilgan. Natijada o'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi g'oyat muhim manbaga boyigan.

O'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklar tadqiqi xususida M.Navruzovaning "O'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari" [14] mavzusidagi tadqiqot ishida mulohazalar yuritilgan. Xususan, tadqiqotchi o'zbek folklori namunalarini tilida metaforik ko'rinishdagi tibbiy birliklar ko'p kuzatilishini e'tirof etib, ularni quyidagi guruhlariga ajratgan:

tana qismlari nomlari asosida: qorincha, oyoq, bosh, boshcha, lab, bel,...

kiyim-kechak va ularning qismlarini anglatuvchilar asosida: miya toni, miya choki, eshituv hoshiyasi, qorin burmasi, yelka kamari kabi;

kundalik hayotda ishlatiladigan ro'zg'or buyumlari, turli narsa-predmet nomlari asosida: siydik pufagi, qorin charvisi, quloq oynasi, soch kepagi, kasallik o'chog'i, ichak so'rg'ichi kabi;

hayvon nomlarini va ularning tana qismlarini birlashtirish asosida: miya chuvalchangi, yo'lbars yuragi, bo'ritanglay, ot dumi, baliq tangachasi, tovuq eti kabi;

rang bilan bog'liq metaforalar: malinarang til, miyaning kulrang qobig'i, qorason, qizilcha, sariq, sariq isitma, sariq tana, ko'kyo'tal, pushti rang temiratki, qorajigar, targ'il tana, qoraqo'tir, qora oqsoq, sariqdog', oq kasali kabi [14, 20].

Shuningdek, dissertatsiyada tibbiy terminlarni "medisionimlar" tarzida nomlash taklif etilgan hamda ularga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bunday lisoniy birliklar muayyan leksik tizim ko'rinishida birlashib, makro va mikro semantik maydonlarni hosil qiladi. Har biri struktur-semantik tuzilishga, stilistik-funksional vazifaga ega. Ko'pincha milliy-madaniy, derivatsion xususiyat kasb etishi jihatidan ham e'tiborni tortadi. Gohida lingvokulturema sifatida ham namoyon bo'ladi" [14, 24]. Ta'kidlash lozimki, M.Navruzovaning ushbu ta'rifi bu sohada undan avval izlanish olib borgan olimlarning mulohazalari bilan to'liq mushtarakdir. Ammo, tibbiyotga oid leksik birliklarni *medisionimlar* tarzida atash ilgari surilgan holat oldingi ishlarda ko'zga tashlanmaydi. Ehtimol, bu masala biroz munozaralidir. Chunonchi, tavsiya qilingan yangi nom o'zida o'zbek tilining o'z qatlamidan hosil bo'lmagan. Ammo boshqa tomondan qaraganda, tilshunoslikda zoonim, ornitonim, antroponim, toponim kabi baynalmilal nomlanishlar mavjudligini hisobga olib, medisionim tarzida atash ham maqsadga muvofiqdir. Zero, medisionim ikki so'zdan iborat "tibbiy termin"ga qaraganda ixchamroq ko'rinishga ega. Shu jihatdan, mazkur dissertatsiya o'zbek

tilshunosligida tibbiyot terminlari tadqiqi bo'yicha muhim masalalarni qamrab olgan tadqiqotlardan biri deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari, soha terminlari tadqiqi borasida amalga oshirilgan yana bir yirik monografik tadqiqot B.Gafurovga tegishlidir. Uning "Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o'zbek tillari misolida)" [15] mavzusidagi doktorlik (DSc) ishida reklama diskursida tibbiyot leksikasining funksional-semantik jihatlarini aniqlash orqali ularning til va nutqdagi o'ri, lisoniy, milliy-madaniy, lingvomadaniy, lingvopragmatik, lingvodidaktik, lingvokognitiv hamda kommunikologik xususiyatlari yoritilgan. Chunonchi, tadqiqotda quyidagi fikrlar alohida e'tirofqa loyiq:

tibbiy terminologiyani o'z ichiga olgan reklama matnining mazmuni rus va o'zbek tillari morfologik imkoniyatlari asosida boyitiladi. Ayniqsa, reklama matni tuzuvchilari tomonidan fe'llarning buyruq mayli shakli, farmatsevtik preparat aniq miqdorini, hajmini, dozasini ko'rsatish maqsadida son so'z turkumidan, dori vositalarini qabul qilish vaqti, o'rtasidagi vaqt farqini ko'rsatishda ravish so'z turkumidan foydalaniladi;


tibbiyot leksikasi yordamida kasalliklarning mashhur umumxalq so'zlashuv uslubida ifodalangan nomlari muqobil variantlarga almashtiriladi, chunki ularning stilistik va semantik mazmuni axloqiy va estetik jihatdan omma oldida aytilmasligi bilan cheklangan;

tibbiy xizmatlar va farmatsevtika sohalari reklama matnlarida aks etgan eng faol tibbiyot leksikasi birliklari ko'proq turkiy, fors, tojik, arab, ingliz va rus tillaridan o'zlashtirilgan;

ayollar uchun mo'ljallangan reklamalarda mualliflar ayol tabiatining mo'rtligi, zaifligi, nozikligi va go'zalligi bilan bog'liq bo'lgan so'zlardan, shu jumladan tibbiyot leksikasidan foydalanadilar;

erkaklar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida faqat kuchli jinsga tegishli shaxsiy fazilatlarini ifodalovchi so'z va iboralar tanlanadi: o'ziga ishonch, mardlik, iroda kuchi, harakatlardagi tavakkalchilik va boshqalar [15, 18-25].

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan tibbiy terminlar tilshunoslarning e'tiboridagi dolzarb mavzu ekanligi yaqqol ko'rinib turibti. Dastlab ularning qiziqishi tibbiyotning alohida tarmoqlaridagi tibbiy terminlarga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik – asosan tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari doirasidagi tibbiyotga oid leksik birliklar tadqiqiga o'zgargan. Chunonchi, shu kungacha yozilgan dissertatsiyalarni tadqiq etib, ularda tibbiy terminlarning semantik xususiyatlari eng ko'p o'rganilganligi aniqlandi (2-rasmga qarang):



2-rasm. O'zbek tilshunosligida tibbiy terminlar monografik ko'lamda tadqiq qilingan tilshunoslik sohalari (1967-2023 yy.)

## TILSHUNOSLIK

Bundan ma'lum bo'ladiki, tibbiy terminlarning ma'no va mazmun jihati tadqiqotchilarning e'tiboridagi eng muhim masala sanaladi. Bizningcha ham, tibbiy terminlarning bu xususiyatlarini o'rganish terminologik tizimdagi sinonimiya, omonimiya, polisemiya kabi ulkan muammolarni hal qilishga yaxshiroq xizmat qiladi.

**XULOSA**

Vaqt, kun, oy, yil o'tar ekan, atrofdagi barcha narsalar ham turg'un holatda turib qolmaydi, shakllanadi. Shu tariqa, tibbiy terminlar tadqiqi sohasi tilshunoslikning u yoki bu yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida tadrijiy rivojlanishni boshdan kechirgan. Garchi tibbiy terminlar borasida ko'p izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq ularning hali tahlil qilinmagan hamda yetarlicha o'rganilmagan jihatlari ham talaygina ekanligi asoslandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Базарова Д.Х. (1967). Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках: автореф. дис.канд. филол. наук. Ташкент. – 27 с.
2. Хусанов А. (1982). Название болезней и их симптомов в узбекском языке: дис.канд.филол.наук. Ташкент.
3. Касымов А. (1982). Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: дис.канд.филол.наук. Ташкент.
4. Мираҳмедова З. (1994). Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: филол.фан.номз.дис. Тошкент.
5. Ғайбуллаева Н.И. (2019). Ўзбек тилида тиббий эвфемалар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 50 б.
6. Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмларнинг лингвистик хусусиятлари. // Сўз санъати халқаро журнали, 4-жилд, 3-сон, 2021. – Б. 202-211.
7. Абдулхайрова Ф.И. (2021). Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. Тошкент, 57 б.
8. Қосимова Ф. (2022). Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Фарғона, 143 б.
9. Акбарходжаева Ф.А. (2022). Тиббиёт соҳасига оид ўзлашма терминларнинг лингвостатистик тадқиқи (лотин тилидан рус ва ўзбек тилларига ўзлашган терминлар мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 54 б.
10. Саидноманов А.К. (2022). Ўзбек тили тиббиёт терминологияси ва унинг лексикографик талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 55 б.
11. Расулова Н.А. (2022). Инглиз-ўзбек тилларидаги тиббиёт терминларининг ўқув луғатини тузиш тамойиллари (анатомик терминлар асосида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Андижон, 147 б.
12. Худойқулова Д.К. (2022). Фармацевтик терминларнинг лексикографик ва функционал-семантик тадқиқи (инглиз, рус, ўзбек тиллари мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Бухоро, 48 б.
13. Суюнов Б.Т. (2023). Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси: Филология фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. Тошкент, 66 б.
14. Navruzova M.G. (2023). O'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Buxoro, 56 b.
15. Gafurov B.Z. (2023). Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o'zbek tillari misolida): Filologiya fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 63 b.